

TARBIYA TIZIMIGA PEDAGOGIK YONDASHUV

Bavanova Umida Abduvahobovna

TAFU o'qituvchisi

Nazarova Shoira

TAFU talabasi

"Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot - yo halokat, yo soadat yo falokat masalasidir"

Abdulla Avloniy

Annotatsiya: Ushbu maqola tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv jarayonida sharq mutafakkirlarining o'z asarlarida keltirilgan pedagogik fikrlari asosida hozirgi yosh avlod qarashlarini o'rgatish va jamiyatda tarbiyaning muhimligini talqin qilingan

Kalit so'zlar: Tarbiya, intellekt, komil inson, tafakkur, shaxs, fidoiylik, sabr, aql, oliyjanoblik.

Ta'limdi tarbiyani, tarbiyani ta'lidan ajratib bo'lmaydi- bu sharqona qarash, shaqrona hayot falsafasi. Tarbiya bu ota-onalarning farzandlarining haqqidir. "Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidan olingan bo'lib o'stirdi, ziyoda qildi rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi.

Musulmon ulamolari "tarbiya"ni bir necha hil usulda ta'rif berishgan:

"Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga yetkazishdir". Rog'ib Asfihoni tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetqazishdir. Tarbiyada bir insonni duniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat bilan o'stirishdir".

Sharq mutafakkirlari ham o'z asarlarida ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratishgan bularga misol qilib:

Abu Nasr Farobi, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Ogahiy, Berdaq va boshqalarni keltirish mumkin.

Farobiyning Ta'limg-tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy-axloqiy tarbiyada aloxida e'tibor bergenligi seziladi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifikat, albatta yaxshi axloq bilan bezatilmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. Bolaning axloqiy tarbiyasi haqidagi fikrlarida uy-ro'zg'or tutish masalalariga ham to'xtalib o'tkan.

Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururigategmagan holda, yakkama-yakka suxbat asosida bo'lishuni nasixat qilgan.

Yusuf Xos Hojib har bir kishi jamiyatga munosib inson bo'lib kamol topmo i kerakligini, buning uchun esa farzand tug'ilganidan boshlab tarbiya berish lozimligini uqriftgan.

Jaloliddin Davoniy ota-onasi bolaning tarbiyasidagi ahamiyatini ta'kidlar ekan, uning fikricha oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi

hulq-odob qoidalarini muayyan bir kasb egallahiga ko‘malashishi ilm va kasb hunar egallahining moddiy asoslarini yetkazib berishi lozimligini nazarda tutadi.

Berdaq yoshlarning aqliy tarbiyasida mакtabning mavqeи katta ekanligini ta’kidladi. Maktabda bolani yaxshi xulqi tarbiyalash lozim.

Ogahiy ta’lim-tarbiya ilmlarini egallah va tilni bilishda xam muhim ahamiyatga molik ekanligini ta’kidladi.

Abdulla Avloniyning “Dars ila tarbiya faslida biroz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmayduran, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitur” deb yozganlarida eng avvalo tarbiya bilan yo’llanilgan har qanday ta’lim samarali bo‘lishiga alohida ta’kidlab ketilgan.

L.N.Tolstoy shunday yozadi: “Tarbiya, biz o‘qitish, tarbiyalashni xoxlamas ekanmiz murakkab va qiyinligicha qoladi. Agarda boshqalarni biz faqat o‘zimiz orqali tarbiyalashimiz mumkinligini tushunib olsak, unda tarbiya masalasi yo‘qoladi va hayot to‘g‘risidagi masala qoladi. O‘zim qanday yashashim kerak!”

Tarbiya jarayonini o‘zining o‘ziga xosligini “saqlab qolish” uchun “Tarbiya, tarbiya....tarbiya! monografiya hammualliflari V.A.Karakovskiy, Selinovalar va estoniyalik pedagog va psixolog, O.Yo.Laymete va boshqalar taklif etgan tushunchalardan foydalanilgan. “Laymete bo‘yicha” qarasak unda tarbiya tizimi didaktikadan iborat bo‘lmaydi, balki bir tomonidan psixologopedagogika, boshqa tomonidan esa- ijtimoiy-pedagogik tizimdan iborat bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki tarbiya tizimida pedagogik yondoshuv o‘quv jarayonida samarali bajarish va o‘quvchilarni faol qatnashtirish, shaxsiy rivojlanishlarini oshirishda katta izlanishlar olib borganlari hozirgacha ta’lim va tarbiya tizimiga muhim fundamental asos bo‘lib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda shuni ta’kidlash joizki, sharq mutaffakirlarining pedagogik jarayonga bildirgan fikrlari va yozgan asarlarida haligacha o‘z kuchini yo‘qotmagani va yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rinda qo’llanilayotgani quvonarli holat. Yuqoridagi yozilgan mutafakkirlar va psixolog va pedagoglarning yozib qoldirgan fikrlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, eng avvalo hamma joyda tarbiya eng ustuvor hisoblanadi va bu o‘z navbatida ta’lim bilan chambarchas holda olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik - T.: SANO-STANDART, 2017.
2. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. o‘quv qo’llanma - T.: NOSHIR, 2011.
3. X. Ibragimov., Sh. Abdullayeva Pedagogika nazariyasi Darslik. T., “Fan va texnologiya”, 2008. 288 bet.
4. Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. - T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyat, 2010.
5. Hashimov K., Nishanova S. Pedagogika tarixi. - T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

6. J.Hasanboyev, H.Sariboyev, G.Niyozov, O.Hasanboyeva, M.Usmonboyeva Pedagogika o'quv qo'llanma Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 2006. 277 bet

7. K.Xoshimov., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri (I jild) "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2010 yil. 416 bet

8. www.fayllar.org

9. bestpublication.org

10. cyberleninka.ru